



**O'ZKIMYOSANOAT**  
AKSIYADORLIK JAMIYATI

*2026-yil 5-mart*

**Bilasizmi: natriy sianidi asosan tog'-kon sanoatida rudalardan oltin va kumushni ajratib olish uchun ishlatiladigan kuchli kimyoviy modda**



Natriy sianidi asosan tog'-kon sanoatida rudalardan oltin va kumushni ajratib olish (sianlash) uchun ishlatiladigan kuchli kimyoviy modda.

Shuningdek, u po'latni mustahkamlash (sianidlash), galvanotexnika (metall qoplash), kimyoviy sintez (bo'yoqlar va dorivorlar) hamda qishloq xo'jaligida zararkunandalarga qarshi kurashda qo'llaniladi.

Asosiy foydalanish sohalari:

- Oltin va kumush qazib olish: Ruda tarkibidan metallni erituvchi sifatida gidrometallurgiyada asosiy reagent.
- Metallarga ishlov berish: Po'lat buyumlarning yuzasini qattiqlashtirish (sementatsiya) va metallarni galvanik qoplash (sinklash, tilla suvi yugurtirish).
- Kimyo sanoati: Nitrillar, izonitrillar va indigo bo'yoqlarini ishlab chiqarish.
- Farmatsevtika: Dori vositalarini sintez qilish.
- Boshqa sohalari: Fotografiya, litografiya va qishloq xo'jaligida zararkunandalarni yo'qotish.

**source:**

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/bilasizmi-natriy-sianidi-asosan-tog-kon-sanoatida-rudalardan>